



NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

NAVOIY VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

2021- YIL YANVAR-AVGUST


Sanoat statistikasi bo'limi
Tel.: 79-223-33-29

Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar-avgust)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 47 318,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 105,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (83,4 %) ni tashkil etdi.



B-Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da





Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoatida - 13,2 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatning - 4,5 % ga o'sishiga xizmat qildi.

Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 1,7 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 11,2 % ga pasayish kuzatildi.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi* ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da

(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 376,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da




Ishlab chiqaradigan sanoat

(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)




2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39 490,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 83,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2020- yilning yanvar-avgust oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 7,5 % (5,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 85,6 % (87,9 %) va quyi texnologiyalisi - 6,7 % (6,5 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,8 % (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 87,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 76,8 % (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 102,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,6 % (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 114,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,9 % (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 109,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,6 % (2020- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 144,1 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 9,1 ming m³ azot (2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 135,9 % ga o'sgan), 56,2 ming tonna natriy gidroksidi (kaustik soda) (123,7 %), 423,1 ming tonna suvsiz ammiak (163,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.




**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-avgust	2021- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar- avgust oyiga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, ming tonna.	2 413,0	2 552,4	105,8
Azot, ming m³	6,7	9,1	135,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	45 240	41 827	92,5
Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming tonna	45,4	56,2	123,7
Kislorod, ming m³.	122,0	106,6	87,4
Suvsiz ammiak, ming tonna	259,0	423,1	163,4
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna.	306,6	316,5	103,2
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna	57,0	50,3	88,4

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan suvsiz ammiak 163,4 % ga hamda azot mahsulotining 135,9 % ga o'sishi qayd etildi.

Shuningdek, yumshoq bug'doy va spelta uni 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan - 92,5 % ni tashkil qildi.


Metallurgiya sanoati (2021- yil yanvar-avgust)



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati ulushi 78,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 6,9 % ga o'sgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 76,8 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 2,6 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 30 315,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (2021- yil yanvar-avgust)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-avgust oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 87,4 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1 512,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(2021- yil yanvar-avgust)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 106,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 9,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1 138,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

(2021- yil yanvar-avgust)



2020- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,4 % ni tashkil etgan.



Shuningdek, 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,6 % ni, fizik hajm indeksi 157,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 587,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash

(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)



mlrd.
so'm




FHI
% da




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 397,2 mlrd. so'mni jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,1 % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,3 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



2020- y.
% da



2021- y.
% da




Elektr, gaz, buq' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-avgust	2021- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	7 682,2	7 205,7	-476,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2 193,6	2 831,6	638,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 54,4 mldr. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ni) tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-avgust	2021- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	20 228,4	41 880,3	21 651,9
Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	9,3	81,4	72,1
Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	34 391,1	30 297,4	-4 093,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,1 (bar.)ga va xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar - 8,8 (bar.) ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek, boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig‘ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan - 88,1 % ni tashkil qildi.

Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo’llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 595,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 105,2 % ni tashkil etdi, uning jami sanoatdagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2020- yil yanvar-avgust oylarida 0,1 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g’ri kelib 29,6 % ni, Karmana tumani 18,8 % ni, Xatirchi tumani 12,5 % ni, Qiziltepa tumani 12,3 % ni hamda Navbahor tumani 7,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o’sish sur’atida viloyat o’sish sur’ati (105,2 %) darajasidan yuqori ko’rsatkich Zarafshon shahrida (124,1 %) hamda Karmana tumanida (108,5 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mird. so'm		Ulushi % da	O'sishi % da
	2 595,4		100,0	105,2
Navoiy viloyati.				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	767,9	29,6	100,6	
Navoiy sh.				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	185,4	7,1	124,1	
Zarafshon sh.				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	488,5	18,8	108,5	
Karmana t.				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	64,8	2,5	101,7	
Konimex t.				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	319,3	12,3	108,3	
Qiziltepa t.				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	196,2	7,6	104,9	
Navbahor t.				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	164,5	6,3	105,6	
Nurota t.				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	23,6	0,9	101,1	
Tomdi t.				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	61,9	2,4	102,3	
Uchquduq t.				
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	323,3	12,5	101,1	
Xatirchi t.				

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 36,5 % ni, Karmana tumani 21,5 % ni, Xatirchi tumani 9,0 % ni, Nurota tumani 8,2 % ni, Qiziltepa tumani 7,7 % ni hamda Navbahor tumani 7,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (102,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Zarafshon shahrida (123,7 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chigarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mird. so'm			Ulushi % da			O'sishi % da				
	1 514,1	100,0	102,5	Navoiy viloyati.							
Navoiy sh.											
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Navbahor t.			
	552,0	36,5	100,8		106,8	7,0	107,6	Nurota t.			
Zarafshon sh.											
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Tomdi t.			
	86,0	5,7	123,7		124,5	8,2	106,7	Uchquduq t.			
Karmana t.											
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Xatirchi t.			
	325,7	21,5	99,6		11,2	0,7	101,1	Qiziltepa t.			
Konimex t.											
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Xatirchi t.			
	34,1	2,3	101,4		21,6	1,4	100,0	Qiziltepa t.			
Qiziltepa t.											
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	Xatirchi t.			
	116,4	7,7	100,4		135,8	9,0	100,4	Xatirchi t.			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga 20,0 % ni, Qiziltepa tumaniga to'g'ri kelib 18,8 % ni, Xatirchi tumani 17,3 % ni, Karmana tumani 15,1 % ni hamda Zarafshon shahrida 9,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Karmana tumanida (132,2 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chigarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1 081,3	100,0	109,2
Navoiy viloyati.			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	215,9	20,0	100,2
Navoiy sh.			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	99,4	9,2	124,6
Zarafshon sh.			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	162,8	15,1	132,2
Karmana t.			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	30,7	2,8	102,0
Konimex t.			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	202,9	18,8	113,5
Qiziltepa t.			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	89,4	8,3	101,7
Navbahor t.			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	40,0	3,7	102,4
Nurota t.			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	12,4	1,1	101,2
Tomdi t.			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	40,3	3,7	103,5
Uchquduq t.			
	Mird. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	187,5	17,3	101,5
Xatirchi t.			

**Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar
tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chigarish**
(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 971,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 2,1 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining shahar va tumanlar kesimida
sanoat ishlab chiqarishi hajmlari
(2021- yilning yanvar-avgust oylarida)

	Mlrd. so'm		Ulushi % da	O'sishi % da
	47 318,4		100,0	105,1
Navoiy viloyati.				
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	40 565,7	85,7	105,1	
Navoiy sh.				
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	221,0	0,5	108,6	
Zarafshon sh.				
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	4 553,6	9,6	104,6	
Karmana t.				
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	77,1	0,2	106,7	
Konimex t.				
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	398,4	0,8	110,6	
Qiziltepa t.				
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da	
	776,1	1,6	109,9	
Xatirchi t.				

**Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab
chigarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, % da**

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Navbahor (2020- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 117,2 %), Uchquduq (112,7 %), Qiziltepa (110,6 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Zarafshon shahrida (2020- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 124,1 %), Karmana tumanida (108,5 %), Qiziltepa tumanida (108,3 %) hamda Nurota tumanida (105,6 %) sezilarli darajada oshdi.

Navoiy viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Navoiy shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 85,7 %) hamda Karmana (9,6 %), Xatirchi (1,6 %), Navbahor (0,9 %), Qiziltepa (0,8 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Eng past ko'rsatkich esa Tomdi (0,1 %), Konimex (0,2 %), Uchquduq (0,2 %), Nurota (0,4 %) tumanlari hamda Zarafshon (0,5 %) shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021-yilning yanvar-avgust oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 828,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi tumanida (100,0 %), Konimex tumanida (100,0 %), Zarafshon shahrida (99,1 %), Nurota tumanida (93,5 %), Qiziltepa tumanida (83,8 %) tashkil etdi.




Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Navoiy shahrida (1,6 %), Karmana (15,4 %), Xatirchi (42,7 %), Navbahor (50,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda
 (2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatimizda 3 489 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'ssatmoqda, shundan 755 tasi (mavjud korxonalar umumiyligining 21,6 %) Navoiy shahriga, 588 tasi (16,9 %) Karmana tumaniga, 428 tasi (12,3 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda
 (2021- yil 1- sentabr holatiga ko'ra)



2021- yil yanvar-avgust oylarida viloyatimizda 696 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 110 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 15,8 %) Uchquduq tumanida, 98 tasi (14,1 %) Navoiy shahrida, 88 tasi (12,6 %) Karmana tumanida, 82 tasi (11,8 %) Xatirchi tumanida, 66 tasi (9,5 %) Zarafshon shahrida, 60 tasi (8,6 %) Qiziltepa tumanida, 59 tasi (8,5 %) Navbahor tumanida, 43 tasi (6,2 %) G'ozg'on shahrida, 38 tasi (5,5 %) Nurota tumanida, 31 tasi (4,5 %) Tomdi tumanida hamda 21 tasi (3,0 %) Konimex tumanida tashkil etildi.